

## BOSHLANG'ICH SINFDA YOZMA ISHLARNI TASHKIL ETISH METODLARI

*Eshnazarova Nilufar Rizaqulovna*  
*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*  
*15-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinfda yozma ishlarni tashkil etish metodlari haqida to'xtalib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** ijodkorlik, yosh davri, ta'lim-tarbiya jarayoni, mustaqil ta'lim, bilim samaradorligi, baholash, rag'bat.

O'quvchi savodxonlikning ma'lum bosqichini o'tagandan keyin diktantga nisbatan murakkabroq bo'lgan bayon yozishga o'rgatiladi. Bayon diktantdan o'z ijodiyliги bilan farqlanadi. Unda o'quvchining ijodkorligi matnni tinglash jarayonida ko'z oldiga keltirgan, eslab qolgan manzara, holat, voqealar rivojini tasavvurida tiklagani holda individuallashtirishi — o'z tilida o'ziga xos ifoda tanlashida namoyon bo'ladi. O'quvchi bu o'rinda matnni boyitishi, jonlantirishi, tasviriy ifodalardan o'rinli foydalanishi yoki, aksincha, borini buzib, uslubiy xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Bunday paytlarda muayyan o'quvchining har bir gapi, jumlası, so'zlarnı bir-biriga bog'lashı, umuman olganda, ifoda texnikasi haqida fikr yuritishga, yo'l qo'yilgan xatolikni bartaraf etib, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatni rag'batlantirishga to'g'ri keladi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Bugungi davrda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz Rahbari belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Umumiy ta'lim maktabining eng muhim maqsadi: Oquvchilarga ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilimlar berishdir. Oquvchi vaqt o'tishi bilan maktabda olgan bilimlarining bir qismini unutadi. Lekin ular izsiz yo'qolmaydi. Olingan bilimlar, garchi o'quvchilar unutganda ham, aqliy kamolotda ma'lum darajada iz qoldiradi. Ko'pincha bolalar o'zlarining amaliy faoliyatlariga bog'lanmagan maktab materialini eslaridan chiqaradilar. Bazan o'rganish jarayonida mashq va mustaqil ishlar kam bajarilishi sababli, materiallar xotirada mustahkam saqlanmaydi. Bulardan tashqari, oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar yanada murakkabroq materialni o'rganish uchun bir pog'ona, tayanch bo'ladi. Ilmiy bilimlarni egallash o'quvchilarning xotirasini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy faolligi va turli ishlarni bajarishdagi mustaqilligini rivojlantiradi.

Har bir o'quvchining ta'lim - tarbiya jarayonidagi faoliyati o'ziga xos bo'lib biri - birini takrorlamaydi. Shunday ekan ularning salohiyatini, iqtidori jarayonidagi harakatini bir xillikda baholash bir mavqeda ko'rish albatta noo'rin. O'quvchilarning mustaqil ishlari, fikrlashi salohiyatlarida ham farq katta. O'quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo unga tayyorlash o'qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda tavsiya etish mumkin: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, ijodiy ishlarni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim.

Mustaqil ish turlarini qanday turlari bo'lishi kerak? Avvalo, ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirishning sifatlaridan biri topshiriqlarni to'la eslab qolib bajarishlaridir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir. O'quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvurlari yorqin, so'z boyligi yetarli emas. Ma'lumki bola ilk bor tarbiyani oiladan oladi. Oiladagi ijtimoiy muhit uning ichki tartib intizomi ongli ravishda bola tarbiyasigatasir ko'rsatadi. Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir

Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini o'rtaga surdi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi.

O'quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega? Nega shunday bo'ldi? Seningcha qanday bo'lishi kerak edi? Kabi savollar berib, uning fikrini ma'qullab, yana o'ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz! kabi rag'batlantiruvchi so'zlarni ishlatish foydalidir. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

- beriladigan har bir topshiriq o'quvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqish uyg'ota olsin;

- ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin;

- ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik sezsin;

- mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga e'tibor berish kerak.

- topshiriqlarni doimo navbatlashtirib, turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;

- topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;

- ish joyi hamisha qulay, saramjon-sarishta bo'lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak;

- topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;

- darslik, didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, iloji boricha sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishni me'yorlash kerak.

Bolalar darsdan keyin (og'ir, mashaqqatli mehnatdan keyin) tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o'tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan, bolalarni kuzatishlarga undashi lozim.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni o'qishning bir necha turlari yani, ongli, tez, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatib boriladi.

Har bir o'quvchining ta'lim - tarbiya jarayonidagi faoliyati o'ziga xos bo'lib biri - birini takrorlamaydi. Shunday ekan ularning salohiyatini, iqtidori jarayonidagi harakatini bir xillikda baholash bir mavqeda ko'rish albatta noo'rin. O'quvchilarning

mustaqil ishlari, fikrlashi salohiyatlarida ham farq katta. O'quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo unga tayyorlash o'qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda tavsiya etish mumkin: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, ijodiy ishlarni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim. Mustaqil ish turlarini qanday turlari bo'lishi kerak? Avvalo, ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirishning sifatlaridan biri topshiriqlarni to'la eslab qolib bajarishlaridir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi.

Xulosa qilib aytganda darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'quvchilar mustaqil ishlash jarayonida o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Shu tariqa o'zlashtirish natijalari ortib boradi, olingan bilimlar mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri «...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy

ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shuni takidlab o'tganlarki "Bizning asosiy maqsadimiz -yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat." Shunday ekan biz pedagoglar qo'limizdan kelguncha o'quvchilarni bilim darajalarini oshirish va rivojlantirishimiz lozimdir

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. K.Yunusov Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari 2001 yil
3. K.Qosimova Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi "O'qituvchi" Toshkent 1985 yil
4. M.Yusupov O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent "O'qituvchi" 1994 yil